

O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida sport sog‘lomlashtirish ishlariga qaratilgn ishlar to‘g‘risida MA’LUMOT

Universitetda “Talaba – yugur” ko‘ngillilar yugurish musobaqalari to‘g‘risida



targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish maqsadida faol talabalar tarkibidan “Talaba – yugur” targ‘ibot jamoalarini tashkil etish, mazkur jamoalarning faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish, musobaqada universitetning ko‘ngilli talabalarini belgilangan muddatlarda jalb qilish va platformadan belgilangan tartibda ro‘yxatdan

o‘tkazish, tadbirni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha tegishli mas‘ullarga ko‘rsatmalar berish, universitetda yugurish bo‘yicha alohida sport seksiya va to‘garaklarini tashkil etish, yugurish mashg‘ulotlari jadvalini shakllantirish, 2024-yil “Kuz” mavsumida o‘tkazilgan musobaqalarda g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarni



taqdirlash

marosimini hamda 2025-yilda o‘tkaziladigan tadbirlarni barcha ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish (teleko‘rsatuvlar, videoroliklarni namoyish etish, ijtimoiy tarmoqlarda va internet-resurslarda ommalashtirish yo‘li bilan keng yoritish) topshiriqlari belgilangan.



Shu munosabat bilan, universitet “Talaba-

yugur” ko‘ngillilar yugurish musobaqasi to‘g‘risida targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish maqsadida faol talabalar tarkibidan “Talaba-yugur” targ‘ibot jamoalarini tashkil etildi hamda mazkur jamoalarning faoliyati ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilmoqda.

Reja bo‘yicha o‘tkazilishi belgilangan “Talaba-yugur” musobaqalarida universitetning ko‘ngilli talabalarini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tadbirni yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha tegishli mas‘ullarga ko‘rsatmalar berildi.



Yugurish bo‘yicha alohida sport seksiyasi va to‘garak mashg‘ulotlari tashkil etilgan hamda haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari talabalarning bo‘sh vaqtlarini inobatga olgan holda olib borilmoqda.

<https://t.me/sharqfilologiyasiofficial/6515>,

<https://t.me/UzSWLU/26336>